



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



## MAHMUDXO`JA BEHBUDIYNING “PADARKUSH” DRAMASIDA DIDAKTIK TASVIRNING USTUNLIGI

**Rustamova Sanobar Murodjon qizi**

*Buxoro davlat universiteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada alloma, yozuvchi, jamoat arbobi va o`zbek dramaturgiyasi asoschisi, jadidchilik harakati, ya`ni yangicha o`quv metodikasi lideri bo`lgan Mahmudxo`ja Behbudiy shaxsiyatiga doir fikr yuritiladi hamda unng “Padarkush” dramasida didaktik tasvirning ustunligi borasida mulohazalar olib boriladi.

**Annotatsion:** The article discusses the personality of Mahmudkhodja Behbudiya, a scholar, writer, public figure and founder of uzbek dramaturgy, leader of the jadid movement, that is, a new teaching methodology and discusses the dominance of didactic imagery in his drama “Padarkush”.

**Kalit so`zlar:** Milliy ozodlik kurashi, “xalq otasi”, Fitrat, Cho`lpon, didaktik tasvir.

**Keywords:** National liberation struggle, father of the people, Fitrat, Cho`lpon, didactic imagine.

**KIRISH.** Mahmudxo`ja Behbudiy 1874-yil 30- yanvar kuni Samarqand shahrining Yomini mahallasida tavallud topgan. Mahmudxo`ja Behbudiy o`n to`qqizinchi asrning oxirgi choragi va yigirmanchi asrning dastlabki o`n yilliklarida Turkistoonning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma`rifiy hayotida yorqin iz qoldirgan siymolardan edi.

U o`z davrida mana shu davlat, jamiyat, inson hayoti yo`nalishlarida juda katta inqilobiy o`zgarishlar yuzaga chiqayotganligini ko`rdi. U o`z hayotini tamomila shu inqilobiy o`zgarishlarga bag`ishladi. Ko`p hollarda inqilobiy o`zgarishlarning muallifi va kashhofi bo`ldi.

**ASOSIY QISM:** Milliy ozodlik va ijtimoiy o`zgarishlar uchun kurash zamonlarida maydonga xalqning otalari chiqdi. “Xalq otasi” degan tushuncha unchalik ilmiy bo`lavermasa-da, lekin istiqlol harakatini boshidan o`tkazayotgan barcha xalqlar tarixida shu tushunchaga duch kelamiz. Aslida, bu tushuncha orqali uning o`z xalqini ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlar sari yetaklagan va bu o`zgarishlarga yo`l ko`rsatgan, uning boshida turgan, teran demokratik o`zgarishlarga ega bo`lgan siymolar nazarda tutiladi.

Shu ma`noda Mahmudxo`ja Behbudiy o`z serqirra faoliyati davomida “millat otasi” degan buyuk nomga sazovor bo`lgan edi. Uning sadoqatli safdosh, zamondoshlari fojeali o`limidan so`ng, uning sharafiga bag`ishlab yozgan asarlarida to`g`ridan to`g`ri uni ota deb atagan edilar. “Zolimning taxtini titratgan bir tovush qichqirdi: Otamning qabrini qay yerga yoshurding?!”, - deb Fitrat faryod chekayotgan yoki – “Aziz otam, qo`limdagi gullarning motam gulin ekanligin bilmaysan...”, - deya Cho`lpon hasrat chekayotgan bir vaqtida, Sadreddin Ayniy uni “ turon dohiysi”, “oliyshon ustod” deb ulug`lagan edi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Behbudi - millatning vijdoni, Turkiston iymoni. Uning har bir yozgan so`zidan va tarixda raqam surib qolgan har bir harakatidan, har bir qilgan ishidan Vatanga, xalqqa, insonga, hayotga, o`z xalqining taqdiriga munosabatlaridan vijdon, imon gurkirab, yangrab turadi. U vijdon mujassami bo`lganligi uchun ham har kim ota deb atashga haqli.

Mahmudxo`ja Behbudi xalqni, uning farzandlarini ma`rifatli qilish uchun o`z hisobidan juda ko`p maktablar ochdi. Ammo ma`rifat uchun birligina mакtab kifoya qilmas edi. Behbudi butun faoliyatini millatni ma`rifatli qilishga qaratdi. Buning uchun u usuli jadid maktablari tarmog`ini kengaytirish, ular uchun o`quv dastur va darsliklar yaratish, o`quvchilarni o`quv qurollari bilan ta`minlash, kutubxonalar, nashriyotlar tashkil qilish uchun muttasil shug`ullandi. Shu davr mobaynida u o`zidan buyuk ma`naviy meros qoldirdi. Xususan, o`zbek va tojik tillarida “Risolayi asbobi savod”, “Muntaxabi jug`rofiyayi umumiy”, “Kitobat ul-atfol”, “Muxtasar tarixi islom” kabi darsliklarni yaratdi. Undan tashqari Behbudi Markaziy Osiyo ijodkorlari orasida “Padarkush” nomli ilk milliy dramatic asarini yaratdi. Muallif “milliy fojea” deb atagan 3 parda, 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo`n. U jaholat va nodonlik, o`qimagan bolaning yomon yo`llarga kirib, o`z otasini o`ldirgani haqida hikoya qiladi. Amerikalik olim Edvard Olvortning fikricha, o`sha davrda yaratilga boshqa dramalar Behbudiyning “Padarkush”i singari muvaffaqiyatli chiqmagan.

Asarning dunyo ko`rishi oson kechmadi. Bunga sabab, birinchidan, chor hukumi mustamlaka Turkistonining ma`rifat yo`liga kirib, o`z huquqini tanishidan manfaatdor emas edi. Shu sababli 1911-yilda yozilgan “Padarkush” dramasi 1913-yildagina bosilib chiqarildi. Zamonaviy drama shu davrdagi barcha hayotiy muammolar va mumtoz adabiyot an`analaridan ancha uzoq bo`lsa-da, u boshqa janrlarda yozilgan asarlardan farqli o`laroq ijro etish, ko`rsatish xususiyatiga ko`ra mahalliy aholi ko`ngliga birdek yo`l topa oldi. Mana shu islohotlar zarur bo`lib turgan bir paytda muhim ma`rifiy tarbiya vazifasini bajardi. Ushbu asar millatning o`z farzandlarini o`qitish, ma`rifatli qilish, o`zi mansub bo`lgan jamiyatni har jihatdan yuksaltirishga qodir bo`lishiga qaramay, bu ezgu amallarni bajarishdan bosh tortgan kishilarning qismati haqida bashorat qiladi. Behbudi asar g`oyasini keskin ziddiyatlar, to`qnasuvlar, xarakterlar kurashi asosida ko`rsatishdan ko`ra dramaning ayrim qismlarida ta`lim-tarbiya orqali mamlakatni rivojlantirish mumkinligini hamda turkistonlik yoshlarning bilim olishdan bosh tortishlari yomon oqibatlarga olib kelishini ko`rsatishga, ya`ni didaktik tasvirga urg`u beradi.

“Har zamonning ilmi hikmati va parvarishi boshqadur. Madomiki, har bola, ya`ni har kimning zamoni otasi zamonidan boshqa bo`lsa va har otag`a o`z farzandini kelar zamon uchun va kelar zamong`a muvofiq suvratda tarbiya etmog`I lozim bo`lsa, biz na uchun kelar zamon emas, balki hozirgi va bu kungi zamon va soatimizdagи ilm va fanlarni bolalarimizga o`rgatmaymiz”, - deya jon kuydirib





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



gapisirayotgan Behbudiyning farzand tarbiyasi uchun bo`lgan mas`uliyat har bir ota-onaning o`sha davrda ham, hozirgi kunda ham o`z ta`sirini yo`qotmagan.

Mahmudxo`ja Behbudi o`z davrida juda ko`p qiyinchiliklarga uchragan bo`lsada, bu qiyinchiliklarni doim yorug` yuz bilan yengishga harakat qildi. Xuddi shunday u o`z dramasida ilgari surilgan jiddiy muammolar ta`lim va tarbiyani kuchaytirish, xalqni asriy jaholat, qoloqlikdan qutqarish, jinoyat va jazo, majburiyat va mas`uliyat singari ijtimoiy munosabatlar sodda va ta`sirli tasvirlangan.

Jadidlar jamiyatni rivojlantirish omili, birinchi navbatda, bilimga, ta`lim, tarbiyaga bog`liq ekanligini anglab yetgan edilar. Shu sababli “Padarkush dramasida bu yetilgan va hayotiy muammo eng dolzarb masala sifatida kuyunchaklik bilan ko`rsatiladi.

**XULOSA.** Behbudi o`z asarlarida ijtimoiy va siyosiy maqsadlarini singdirish uchun qadimdan turkistonliklar amal qilgan adabiy o`yinlar, kinoya va qochiriqlar ko`p, ma`noli so`zlardan mahorat bilan foydalandi. U dramasida o`z yurtdoshlarini chinakam qotil kim va nima uchun bu jinoyatga qo`l urgan bolishi mumkinligi haqida jiddiy o`ylab ko`rishga majbur qiladi...

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zaynobiddin Abdurashidv. Jadidlar. Mahmudxo`ja Behbudi: risola/. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. -156 b.
2. Aliyev A. Mahmudxo`ja Behbudi. – Toshkent: Yozuvchi. 1994- yil.
3. Mahmudxo`ja Behbudi. (1999). Tanlangan asarlar.: “Ma`naviyat”.

